



UDK:378.1

Mohinur ALISHEROVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mohinuralisherova@gmail.com

ADPI professori, p.f.d D.Iroilova taqrizi asosida

ARGUMENTATIV YOZMA NUTQ, UNING TURLARI VA TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola argumentativ yozma nutq muhokamasiga bag'ishlangan asosiy ma'lumotlarni qamrab oladi. Unda argumentativ yozuvning muhim maqsad va funksiyalari, uning turli shakllari hamda ushbu yozuvning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada, bundan tashqari, argumentativ inshoning tuzilishi, uning tarkibiy qismlari, matn kompozitsiyasi prinsiplari va ta'limdagi ahamiyati alohida e'tiborda tahlil qilinadi. Umuman olganda, maqolada rus va xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan ta'rif va ilmiy xulosalar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Argumentative yozuv, muhokama insho, muammo va yechim insho, sabab-natija insho, fikr-mulohaza insholar.

АРГУМЕНТАТИВНАЯ ПИСЬМЕННАЯ РЕЧЬ, ЕЁ ВИДЫ И ЗНАЧЕНИЕ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Эта научная статья содержит исчерпывающую информацию, посвященную аргументативной письменной речи – направлению развития речевых и критико-аналитических навыков учащихся. Она охватывает основные цели и функции аргументативного письма разные формы этого направления, роль данного типа письма в формировании логического мышления. Особое внимание уделено структуре аргументативного эссе, его обязательным компонентам, методам рассуждения и принципам текстуальной композиции. В целом в статье производится анализ выдвигаемых определений российских и зарубежных выводов.

Ключевые слова: Аргументативное письмо, Дискуссионное эссе, проблема и решение эссе, причина и следствие эссе, Мнение эссе.

ARGUMENTATIVE WRITING, ITS TYPES AND IMPORTANCE IN EDUCATION

Annotation

This scientific article deals with the presentation and coverage of the main data regarding the argumentative kind of writing. It describes the important purposes and functions of an argumentative text with its various forms, and the role of the argumentative text in the development of logical thinking. The essay reflects the separate analysis of the structure of the argumentative essay, its constituents, and the principles of text composition. Generally, the analysis in this article edifies upon the definitions and scientific conclusions given by Russian and foreign scholars.

Key words: Argumentative writing, discussion essay, problem-solution essay, cause and effect essay, opinion essay.

Kirish. Argumentativ yozma nutq – bu muayyan mavzu bo'yicha o'quvchiga aniq bir pozitsiyani tushuntirish va uni tasdiqlovchi dalillarni keltirishga qaratilgan yozma uslubdir. Bu turdagi nutqning asosiy maqsadi tinglovchi yoki o'quvchini muallifning qarashlari to'g'ri ekanligiga ishonitirish, ularning e'tiborini jalb qilish va o'ylantirishdir. Argumentativ nutq dalillarga, mantiqiy tahlillarga va isbotlarga asoslanadi. Uning maqsadi — muallifning fikrini asoslash va o'quvchini shu nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlashga undash. Bunday nutqda biror masalaga oid qarama-qarshi nuqtai nazar ham ko'rsatiladi va u tanqidiy tahlil qilinadi. Ushbu uslub muallifning o'z nuqtai nazarini

kuchliroq ko'rsatishi va o'quvchini to'g'ri fikrlashga undashi uchun ishlatiladi. Stephen Toulmin bu borada shunday deydi: "Argumentativ yozma nutqda har qanday fikr yoki pozitsiya dalillar bilan asoslanishi kerak. Mantiqiy xatolardan saqlanish, faktlar bilan qo'llab-quvvatlash, hamda raqib fikrlarini rad etish muhimdir." [1]. Wayne Booth bu haqida shunday yozadi: "Argumentativ yozma nutqning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun nafaqat muallifning o'z pozitsiyasini yaxshi dalillash qobiliyati, balki o'quvchining nuqtai nazarini ham hisobga olish muhimdir. Har qanday qarshi fikrlar tahlil qilinib, ularni rad qilish jarayoni muhim ahamiyatga ega." [2].

Argumentativ yozma nutqning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ular turli xil vaziyatlarda ishlatiladi:

№	Tur	Tarifi
1	Tahliliy argumentativ nutq	muallif ma'lum bir masalani chuqur tahlil qilib, uning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi
2	Taqdimlovchi argumentativ nutq	muallif o'zining fikrini yoki g'oyasini tasdiqlash uchun asosiy dalillarni keltiradi
3	Tanqidiy argumentativ nutq	muallif boshqa biror shaxsning yoki jamoaning fikrlarini tanqid qiladi va ularga qarama-qarshi dalillar keltiradi
4	Ma'lumotli argumentativ nutq	muallif biror muammoni misol qiladi va uning ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy oqibatlarini haqida ma'lumot beradi

Namuna:

Tahliliy argumentativ nutq: "O'zbekiston ta'lim tizimi islohotlariga qaramay, ba'zi jihatlarida islohotlar samaradorligini oshirish lozim. Jumladan, ta'lim texnologiyalarini yanada rivojlantirish masalalari chuqurroq ko'rib chiqilishi zarur" [3].

Taqdimlovchi argumentativ nutq "Iqlim o'zgarishi jahon miqyosida juda muhim muammoga aylangan, va biz o'z vaqtida chora ko'rmasak, bu bizning kelajak avlodlarimiz uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin" [4].

Tanqidiy argumentativ nutq: "Ba'zi tadqiqotlar ta'kidlaganidek, internetda o'qitish an'anaviy ta'limdan samaraliroq emas. Aslida, u o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutmaydi" [5].

Ma'lumotli argumentativ nutq: "O'zbekistonning aholi soni yil sayin ortib bormoqda, bu esa aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Ayniqsa, uy-joy bilan ta'minlash muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda" [6].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Argumentativ yozma nutq mavzusida G'ulomov, Karimov, va Olimov kabi olimlar til va uslubning muhimligini ta'kidlab o'tishgan. G'ulomov yozishicha: "Argumentativ nutqning samaradorligi uning dalillari va mantiqiy tahliliga bog'liq. Yozuvchi o'z fikrini aniq dalillar bilan asoslab bersa, bu nutq o'quvchini ishonтира oladi" [7]. Karimov esa: "Bugungi kunda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivoji bilan argumentativ nutqning o'rni yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim va siyosiy nutqlarda argumentlar mantiqiy asoslanishi zarur", - deb ta'kidlaydi [3]. Argumentativ yozma nutq — bu muallif o'z fikrini dalillash orqali himoya qilishga intilgan va muayyan masala yuzasidan qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qiladigan yozuv shaklidir. Argumentativ yozuv, ayniqsa, ilmiy va akademik sohalarida keng qo'llaniladi. Bu turdagi yozma nutqda muallif o'z pozitsiyasini himoya qiladi va uni dalillar bilan isbotlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktab va akademik litseylarda ustozlar, albatta, ingliz tili yozma nutqini o'rgatishda eng avvalo uning tuzilishidan boshlashadi. Ana shunday argumentativ yozma nutqning tuzilishi ham o'ziga yarasha tuzilgan - Yaxshi argumentativ nutq aniq tuzilishga

№	Argumentative yozma nutq turlari	Tavsilari
1	Opinion Essay (Fikr-mulohaza inshosi)	muallif o'zining biror mavzu yuzasidan shaxsiy fikrini bildirib, dalillar asosida inshoni boyitadi va o'z pozitsiyasini isbotlaydi.
2	Cause and Effect Essay (Sabab va Oqibat inshosi)	muallif biror hodisa sabablarini va uning oqibatlarini tahlil qilib, masalaning ichki mantiqiy bog'liqliklarini ochib berishga harakat qiladi.
3	Problem-Solution Essay (Muammo va Yechim inshosi)	Ushbu inshoda muallifga muammo aniq bayon etiladi, keyin muallif turli yechim variantlarini ko'rib chiqib, eng maqbulini dalillar orqali isbotlaydi.
4	Persuasive Essay (Ishontiruvchi insho)	Bu inshoda muallif dalillarga tayanib, o'z nuqtai nazarini asoslab beradi va o'quvchini ishonтира shga urinadi.
5	Muhokama insho (discussion essay)	muallif muayyan mavzu yuzasidan turli qarashlarni tahlil qilib, o'quvchini har ikki (yoki ko'p) nuqtai nazar bilan tanishtirib, ularning qaysi biri yaxshiroq ekanini isbotlab ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Argumentative yozma nutq keng miqiyosda ingliz tilini o'rganmoqchi bo'lgan linguistlarga va maktablarida ingliz tilini ikkinchi til sifatida yoki chet tili sifatida o'qitiladigan davlatlarda juda muhim hisoblanadi, sababi ushbu yozuv rasmiy uslubda yozilishi hisobiga ingliz tilini biladigan insonlarga yoki talabalarga rasmiy yozishmalarda juda qo'l kelib, ularning ilmiy salohiyati yetarli darajada boyitilganligini ko'rsatib beradi. Bu yozuv uslubini maktab yoki oliy ta'lim dargohlarida ta'limga joriy etish natijasida ilm oluvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, mantiqiy fikrlashini yanada rivojlantirish, mustaqil fikr bera olish qobiliyatini mustahkamlash, omma oldida o'z fikrini ochiq yoritib bera olish kabi turli ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyati sezilarli darajada kengayishi shubxasiz. Shuningdek, bu yozuv turi orqali talaba yoki o'quvchi o'z fikrini yanada izchil, mukammal dalillar yordamida isbotlab, qarama-qarshi fikrni baholay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ingliz tilni o'rganayotgan o'quvchilar uchun bu ko'nikma akademik yoki kasbiy hayotda juda muhim hisoblanadi, chunki bugungi globallashtirilgan davrda izlanuvchi xalqaro anjumanlarda maqola yozishga, rasmiy munosabatlarda xat

ega bo'ladi. Bu tuzilish muallifning fikrini osonroq tushuntirish va o'quvchini o'z pozitsiyasini qo'llab-quvvatlashga ishonтира sh uchun muhimdir.

Kirish qismi: Muallif mavzuni keltiradi va o'quvchini muammoning dolzarbligiga jalb qiladi. Bu qismda o'quvchiga nimani isbotlash maqsad qilganligi tushuntiriladi. Misol uchun: "Bugungi kunda sun'iy intellekt insoniyat hayotining ko'plab sohalarida inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, sun'iy intellektning rivoji ijobiy oqibatlar bilan birga salbiy tomonlarga ham ega ekanligini unutmazlik lozim" [9].

Asosiy qism : Asosiy qismda muallif o'zining asosiy dalillarini keltiradi. Har bir dalil alohida tasdiqlanadi va ularni isbotlash uchun faktlar va statistik ma'lumotlar qo'llaniladi. Bu qismda qarshi nuqtai nazar ham ko'rib chiqiladi va unga qarshi dalillar beriladi. M: "Garchi sun'iy intellekt inson hayotini osonlashtirayotgan bo'lsa-da, u hali ham insonlar uchun xavfli bo'lishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan qurollar va texnologiyalar ko'plab mojarolarni keltirib chiqarishi mumkin" [9].

Xulosa qismi: Yakuniy qismda muallif o'zining nuqtai nazarini yana bir bor isbotlaydi va o'quvchini ma'lum bir harakatga undaydi yoki qaror qabul qilishga chaqiradi. M: "Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning rivoji ijobiy bo'lishiga qaramay, uning salbiy oqibatlari ham hisobga olinishi lozim. Bu texnologiyalarni nazorat qilishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur" [9].

Argumentative nutq turida insho (essay)larning turlari xilma-xildir, va ular o'zaro struktura, maqsad va dalillashuv uslublari bo'yicha farq qiladi. Quyida argumentativ yozma nutqning asosiy turlari haqida ma'lumot berib o'tamiz:

chiqarishga hamda akademik yig'inlarda hech qiyinchiliksiz ishtirok eta oladi. Argumentativ yozuv nafaqat ilm oluvchiga, balki, ilm beruvchiga ham yetarli darajada ta'sir etadi, ya'ni bu yozuvning ta'lim jarayoniga integratsiyasi natijasida o'qituvchi yangicha yondashuvni, interaktiv metodlardan foydalanishni, zamonaviy kommunikativ yondashuvlarni qo'llashni yanda mustahkamlab oladi.

Xulosa va takliflar. Argumentativ yozma nutq turli xil turlarga ega bo'lib, har biri o'ziga xos maqsad va uslubga ega. Fikr-mulohaza, sabab va oqibat, muammo-yechim, taqqoslash va ishonтира vchi insholar eng keng tarqalgan argumentativ insho turlaridan bo'lib, har biri mantiqiy asos, dalillashuv va o'quvchini ishonтира sh usullari bilan ajralib turadi. Argumentative yozma nutqni ta'lim tizimiga joriy etish orqali til o'rganishdagi qiyinchiliklarni osonlashtirishga, samaradorlikni oshirishga, o'quvchilar nutqiy ma'daniyatini yuksaltirishga, xalqaro muloqot va fikr almashinuvi kabi ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratish mumkin. Bu esa zamonaviy jamiyatda faol, mustaqil fikrlovchi, axborotga tanqidiy yondashuvchi shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Toulmin, S. (1958). The Uses of Argument. Cambridge University Press.131p
2. Booth, W. C., Colomb, G. G., & Williams, J. M. (2006). The Craft of Research (3rd ed.). University of Chicago Press.p172.
3. Karimov, A. (2020). O'zbekistonda ta'lim islohotlari va argumentativ nutqning roli. O'zbekiston Ta'lim Jurnali, 12(3), 45-59b.
4. Niyozev, R. (2021). Iqlim o'zgarishi va jahon siyosati. O'zbekiston Ekologik Jurnali, 3(1), 30-44b.
5. Olimov, F. (2019). Internet va an'anaviy ta'limning taqqoslovi. Ta'lim va Texnologiya, 18(4), 89-102b.

6. Ismoilov, H. (2022). Aholining ijtimoiy ehtiyojlari va iqtisodiy siyosat. O'zbekiston Iqtisodiyot va Taraqqiyot Jurnali, 7(2), 110-124b.
7. G'ulomov, S. (2018). Argumentativ yozma nutqning nazariy asoslari. Tashkent State University.
8. Karimov, A. (2020). O'zbekistonda ta'lim islohotlari va argumentativ nutqning roli. O'zbekiston Ta'lim Jurnali, 12(3), 45-59b.
9. Rahimov, D. (2020). Sun'iy intellekt va uning ijtimoiy oqibatlari. Texnologiya va Jamiyat, 25(5), 65-78b.